

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10896619>

**Jumanazarova Gulmira Alisher qizi**

*Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada bozor munosabatlarida raqamli iqtisodiyotning o'рни va ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Bozor munosabatlari, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, iqtisod, dunyo, rivojlanish.*

Bugungi davrga kelib, dunyo iqtisodiy munosabatlari bozorning an'anaviy shaklidan Raqamli shakliga o'tib bormoqda. Raqamli bozorning paydo bo'lishiga va yirik platformalarning rivojlana boshlaganiga ancha vaqt bo'lgan bo'lsa-da, COVID19 pandemiyasi raqamli bozor va unda elektron tijoratning o'sishiga yirik turtki berdi. Endilikda, barcha davlatlar, shu bilan birgalikda O'zbekistonda ham raqamli bozor, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni buni tasdiqlaydi.

Raqamli iqtisodiyotning yuksalishi 21-asrning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Albatta bugungi kuni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin albatta. Aql-zakovat va ilm-taraqqiyot qanotidir. Zamonaviy ilm-fanning cho'qqisi yuqori texnologiyalarda, raqamli olamda ko'zga tashlanadi. To'rtinchi sanoat inqilobi taraqqiyotning yangi ko'rinishi - "raqamli iqtisodiyot" boshlanganini anglatadi. Bugungi kunda biz yaqin kelajakda erishmoqchi bo'lgan ulkan maqsadlarga egamiz. Buning uchun bizga albatta yetuk kadr va mutaxassislar kerak. Raqamli texnologiyalar jamiyat va iqtisodiyotga ko'p jihatdan ta'sir o'tkazadi, shu jumladan yangi aloqa va hamkorlik vositalari orqali xizmat ko'rsatishning kuchli tarkibiy qismiga ega bo'lgan yangi mahsulotlar ma'lumotlarning iqtisodiy o'sish omili sifatida roli sun'iy intellect (AI) yordamida vazifalarni avtomatlashtirish va platformalar kabi yangi biznes modellarining paydo bo'lishi insoniyat hayotini o'zgartirib yubordi. Shu sababli raqamlashtirish bizning hayotimiz va birgalikda ishlash tarzimizni tubdan o'zgartiradi. Bu butun davlat rivojlanishi va farovonligi demakdir.

Raqamli iqtisodiyot - bu ishlab chiqarishning asosiy omillari raqamli shaklda taqdim etilgan ma'lumotlar va ularni qayta ishlash va katta hajmlarda foydalanish bo'lgan faoliyat bo'lib, har xil turdagi ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, samaradorlik, sifat, unumdorlikni, tovarlar va xizmatlarni saqlash, sotish, yetkazib berish va iste'mol qilish

oshirishga imkon beradi. So'nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarning ahamiyati oshib bormoqda. Eng yangi texnologiyalar ishlab chiqarish va biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishi mumkin. Eng yangi texnologiyalar inson faoliyatining barcha yangi sohalari va sohalariga kirib borishi bilan an'anaviy yondashuvlar va ish uslublari o'zgaradi.

Global iqtisodiy tizimda ham, alohida bozorlar va korxonalar iqtisodiyotida ham yangi xususiyatlarni keltirib chiqaradigan texnologik o'zgarishlar bilan bog'liq. Raqamli texnologiyalar biznesda inqilobga olib keldi. Yangi raqamli iqtisodiyot an'anaviy iqtisodiyotdan tubdan farq qiladigan qoidalarga asoslanadi. Iqtisodiy subyektlar doimiy o'zgarib turadigan muhit sharoitida ishlashga majbur bo'ladilar va bunday sharoitlarda rivojlanish biznesning strategik va taktik darajada dinamik o'zgaruvchan muhitga doimiy moslashishini anglatadi

Bozor tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, "Bozor - muayyan tovar yoki xizmatlar sotuvchilari ushbu tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchilar bilan uchrashadigan har qanday joy." K.Makkonell va S.Bryu esa "Bozor sotuvchi va xaridorning birgalikdagi tovarlar va xizmatlar narxini belgilash vositasi bo'lgan mexanizm" deb ta'rif berishadi Hozirgi kunda bozor an'anaviy va raqamli bozor shakllariga ajratilmoqda. O'z navbatida an'anaviy bozor muayyan tovar yoki xizmatlar sotuvchilari ushbu tovarlar va xizmatlarni raqamli texnologiyalardan foydalanmasdan, an'anaviy shaklda sotib oluvchilarga taklif qiladigan joy deb aytish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi qonun tovar bozori tushunchasiga ham ta'rif berib o'tilgan: "Tovar bozori — tovarning, shu jumladan bir-birining o'rnini bosadigan tovarning (o'zining belgilangan maqsadi, qo'llanilishi, sifati va texnik xususiyatlari, narxi hamda boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslanishi mumkin bo'lgan, iste'molchi almashtirishga tayyor bo'lgan tovarning) O'zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomalasi doirasi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida tovarni olish yoki realizatsiya qilish imkoniyati mavjud bo'ladi". Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, Tovar bozori shu tovarning olish yoki sotish, u bilan muomala qilish mumkin bo'lgan chegara, joy makondir. Bugungi kunda raqamli istiqodiyot rivojlana borgan sari raqamli iqtisod tushunchasi bilan birgalikda raqamli bozor, raqamli platformalar, elektron savdo bozorlari kabi tushunchalar muomalaga kirib kelmoqda. Chunki savdo sotiq, xizmatlar ko'rsatish bitimlarining katta qismi raqamli texnologiyalaridan foydalanilgan holda tuzilyapdi va amalga oshirilyapti. Bular raqamli bozorlarni kengayishiga olib kelyapti.

An'anaviy iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlarda asosiy rolni ishlab chiqaruvchi o'ynadi, chunki u mahsulot g'oyalarini shakllantirishga tegishli edi. Xaridor allaqachon ishlab chiqarilgan va ishlab chiqaruvchi tomonidan taklif qilingan imtiyozlar ro'yxatidan tanlov qildi. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy xaridor yangi iste'mol qiymatini yaratish, yangi mahsulot va xizmatlar uchun g'oyalar yaratish jarayonining ishtirokchisi bo'lish imkoniyatiga ega.

Xulosa qilib aytganga, har bir mamlakat rivojlanishi uchun yangi-yangi o'zgarishlar, g'oyalar, vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadigan yangicha tartiblar bo'lishi lozim. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi. Raqamli iqtisodiyot jamoat manfaatlarida ishlashi uchun u inklyuziv bo'lishi kerak. Yangi texnologiyalar muqarrar ravishda mehnat bozoridagi sezilarli o'zgarishlar, jumladan, ayrim tarmoqlarda ish o'rinlarini qisqartirish va boshqalarida keng miqyosda yangi imkoniyatlar yaratish bilan bog'liq. Raqamli iqtisodiyot turli xil yangi bilim va ko'nikmalarni, sezilarli darajada yangi ijtimoiy himoya choralarini talab qiladi. Shu bilan birga, ta'limni rivojlantirish, shuningdek, umrbod ta'lim xizmatlaridan umumiy foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun katta mablag' talab etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Parpieva Malika Muxamadjonovna. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli. Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 3-son.
2. Raqamli iqtisodiyot: yangi biznes imkoniyatlari Shukurullo Yo'ldoshmaxmudov Xurshid o'g'li "O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022 yil 30 noyabr | scientists.uz
3. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich Iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishda kambag'allikni qisqartirish. IQTISODIYOT VA TA'LIM 2021 4-son. 288-292 b
4. Ro'zinazarov.SH, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. O'quv qo'llanma .. Toshkent sh,TDYU.
5. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik) //T.:«Barkamol fayz media» nashriyoti. – 2020. 182-183 b.